

SHARXLARNI MAVZUVIY GURUHLARGA AJRATISHNING LEKSIK ASOSLARI

Ismoilova Odinoxon A'zamjon qizi,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
UNIEP NOTM o'zbek va rus tili kafedrasida o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785617>

Annotatsiya. Mazkur maqolada virtual muloqotdagi komentariylarni mavzuviy guruhlarga ajratishning leksik asoslari va leksik-semantik maydon nazariyasiga oid ayrim mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: internet lingvistikasi, lingvistik birliklar, leksik asos, auditoriya qatlami, tematik guruhlash, leksik-semantik guruh, tematik mansublik.

Аннотация. В данной статье изложены некоторые соображения о лексических основах разделения комментариев в виртуальной коммуникации на тематические группы, а также о теории лексико-семантического поля.

Ключевые слова: интернет-лингвистика, лингвистические единицы, лексическая основа, слой аудитории, тематическая группировка, лексико-семантическая группа, тематическая принадлежность.

Annotation. This article presents certain considerations regarding the lexical foundations of dividing comments in virtual communication into thematic groups, as well as aspects of the theory of the lexical-semantic field.

Keywords. internet linguistics, linguistic units, lexical foundation, audience layer, thematic grouping, lexical-semantic group, thematic affiliation.

Kirish. Dastlab internet lingvistikasi XX asr oxiri XX asr boshlarida mustaqil fan sifatida shakllana boshlagan. Mazkur atamani tilshunoslik sohasiga ingliz olimi David Crystal 2001-yilda olib kirgan bo'lib, u o'zining "Language and the internet" nomli asarida bu haqidagi ilk konseptual fikrlarni bayon etgan. Keyinchalik mazkur yo'nalish ko'pgina davlatlarda, shuningdek o'zbek tilshunosligida ham tadqiq etila boshlandi. Internet komentariylari raqamli muloqot jarayonining muhim qismi bo'lib, ularning lisoniy tadqiqi zamonaviy tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, komentariyalarni mavzuviy guruhlarga ajratish yuzasidan turli lingvistik tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning aksariyati media tilining diskursiv, kommunikativ, lingvopragmatik va genristik aspektlarini ochib berishga qaratilgan. Shuningdek, internet sharhlari tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi va media tili kesishgan nuqtada vujudga kelgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur maqolamizda esa internet sharhlarni virtual kommunikatsiya janri sifatida tematik guruhga ajratishning leksik asoslari haqida mulohaza yuritmoqchimiz.

O'zbek tilshunosligida internet komentariylarni mavzuviy jihatidan tasniflash masalasi e'tibor talab qiladigan mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Sharhlarni mavzuviy guruhlarga ajratishning bir necha morfologik, sintaktik va pragmatik asoslari bo'lishi bilan bir qatorda, uning leksik qatlami ham uning lingvistik birliklar orasidagi munosabatini va

tematik tasnifini belgilab beradi. Leksik asos – kalit soʻzlar va leksik birliklar orqali izohlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu aspektlar orqali internet kommentariyalarini lingvistik tasniflash nafaqat ularning mazmunini chuqurroq anglash, balki jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni ilmiy asosda tadqiq etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Soʻnggi yillarda tilshunoslikda tilni yaxlit bir sistema shaklida oʻrganish yuzasidan keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur sistemaviy til birliklarini semantik maydon sifatida oʻrganish esa tadqiqotimiz obyekti sanalgan internet komentariylarini ham shu nuqtayi nazardan tahlil etish mumkinligiga yoʻl ochib beradi.

Jahon tilshunosligida maydon tushunchasiga oid nazariy qarashlar bevosita A. Yolles, L.Vaysgerber, I. Trir, G. Ipsen, V. Portsig kabi olimlar tomonidan keng koʻlamli tadqiqot ishlari olib borilgan boʻlib, keying yillarda ayniqsa Ferdinand de Sossyurning shu toʻgʻridagi qarashlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Oʻzbek tilshunos olimlaridan filologiya fanlari doktori, professor Sh. Iskandarova lingvistik maydon haqida quyidagicha yondashuvni qoʻllab quvvatlaydi. Maʼno umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktsional) oʻxshashligini aks ettiruvchi til birliklari, asosan, leksik birliklar yigʻindisi maydon sifatida belgilanadi [3, s. 7].

Zamonaviy tilshunoslikda internet komentariylari va onlayn izohlarni mavzuviy guruhlariga ajratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan boʻlib kelmoqda. Mazkur yoʻnalishda topik modeling yondashuvi (Blei va boshq., 2003), aspektga asoslangan sentiment tahlil (Hu & Liu, 2004) hamda kompyuter vositasidagi diskurs tahlili (Herring, 2004) kabi tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Metodologiya. Xususan, leksik asoslar haqida mulohaza yuritsak, eng avvalo, auditoriya qatlami tomonidan yozilgan komentariylarda qanday leksik birliklardan foydalanilgani masalalariga alohida toʻxtalish joizdir. Chunki, jamiyat aʼzolari sotsial talablardan kelib chiqqan holda, turli ijtimoiy guruhlar (siyosiy arboblari, olimlar, yozuvchilar, hunarmandlar) ga birlashadilar. Bu esa shubhasiz ular nafaqat real hayotda, balki virtual makonda ham sotsial qatlamlarning oʻz shaxsiy nutqlarini yaratishiga sabab boʻladi. Shu maʼnoda onlayn sharhlar yozma va ogʻzaki nutq oraligʻidagi mikromatn sanalib, foydalanuvchilarning til birliklaridan foydalana olish malakalarini namoyon etadi. Ana shu til birliklarni tematik jihatidan guruhlashda 2 xil funksional-uslubiy (asosiy) va leksik meʼzon (yordamchi) tasniflash mezonlari mavjudligini alohida taʼkidlash zarur.

Tadqiqot natijalari. Avvalgi tadqiqot ishlarimizda internet komentariylarni alohida nutqiy janr ekanini eʼtirof etib, tasniflashning funksional-uslubiy tomoniga koʻra ilmiy, siyosiy va ommabop kabi turlarga ajratgan edik [1]. Tadqiqotlarda komentariylar janr sifatida baholanishiga qaramay, mavzuviy turlarini aniqlash uchun yordamchi metod sifatida Jost Trier tomonidan ilgari surilgan “soʻz maydonlari” (Jost Trier, 1931) ga tayanishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

Muhokama. Barcha semantik sohalarda bo'lganidek internet komentariylar ham muayyan umumiylik ma'nolari asosida birlashgan leksik birliklar majmuyini tashkil etadi. Masalan bir komentariyda "qaror", "kengash", "demokratiya" kabi birliklar ustun bo'lsa, u siyosiy mavzuga tegishli ekani aniqlanadi. Xuddi shunday "dastur", "ilova", "prompt" kabi leksik birliklar texnologik mavzuga ishora qiladi. Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkin, leksik maydon nazariyasi internet sharhlarini tematik guruhlash vazifasini ham bajaradi.

Tan olish kerakki, amaliyotda sof ilmiy yoki sof siyosiy matnlar kam uchraydi. Chunki mazkur matnlar muallifi, ya'ni internet foydalanuvchisi har doim ham ilmiy komentariylarda olim, siyosiy komentariylarda siyosatchi bo'lavermaydi. Ya'ni auditoriya qatlami aksariyat hollarda oddiy xalqni tashkil etadi va qat'iy grammatik qoidalardan chekinilib, so'zlashuv uslubining yozma shaklidan foydalanishlari tajribalarda kuzatilgan. Shunday ekaniga qaramay, biz internet sharhlarini ichi strukturasi aniqlashda quyidagi leksik-semanik guruh (LSG) ga tasniflaymiz:

Siyosiy leksik maydonga tegishli so'zlarda *demokratiya, respublika, monarxiya, konstitutsiya, parlament, senat, deputat, prezident, hukumat, siyosat, partiya, saylov, kompaniya, mafkura, diplomatiya, mustaqillik, erkinlik, qonun, huquq, adolat, xalq, millat, davlat, boshqaruv, tizim, islohot, korrupsiya, lobbizm, koalitsiya, oppozitsiya, ittifoq, blok, referendum, manifest, deklaratsiya, strategiya, taktika, siyosiy iroda, siyosiy kuch, siyosiy maydon, siyosiy jarayon, siyosiy bahs, siyosiy qaror, siyosiy dastur, siyosiy mafkura, siyosiy yetakchi, siyosiy tashkilot, siyosiy kompaniya, siyosiy kurash, siyosiy tizim, siyosiy hokimiyat, siyosiy ta'sir, siyosiy manfaat, siyosiy kelishuv, siyosiy muvozanat, siyosiy barqarorlik, siyosiy inqiroz, siyosiy islohot, siyosiy nazorat, siyosiy tahlil, siyosiy baholash, siyosiy jarayonlar, siyosiy institutlar, siyosiy mexanizm, siyosiy huquq, siyosiy mas'uliyat, siyosiy erkinlik, siyosiy vakolat, siyosiy shaxs, siyosiy nutq, siyosiy chiqish, siyosiy bahs-munozara* kabi kalit so'zlar qatnashadi. Quyida real youtube komentariylaridan misol keltiramiz:

[@MaftunaMirzayeva-d7t](#): Haqorat qilgan shaxs voyaga yetmagan bo'lsa qanday qonuniy javobgarlik belgilangan [4].

Yuqoridagi misolda "haqorat qilgan shaxs", "voyaga yetmagan", "qonuniy javobgarlik" tushunchalari siyosiy leksik maydonga mansub ideologik birliklar sanaladi.

Texnologik leksik maydonda *dastur, nanotexnologiya, prompt, internet, server, ilova, yangilanish, kiberxavfsizlik veb-sahifa, platform, nanotexnologiya, robototexnika, sun'iy intellekt, telekommunikatsiya* kabi leksik birliklar ustunlik qiladi.

[@rustamnabiyb4303](#): Man dasturchi sifatida aytmoqchimanki python tili albatta zor va oson lekin shunga yarasha kanchliklari bor python dinamik turlovchi dasturlash tili hisoblanadi masalan string turiga integer turini ham berib ishlatib ketolasz bu esa Asli hatto kod lekin ishlashda davom etaveradi bu esa kodni tartibsiz yozishga olib keladi Aa Php , Java , tillari esa statik tillar bo'lib unda tartibli va behato kod yozishni organasz [5].

Keltirilgan misolda esa “dasturchi”, “phthon tili”, “dinamik turlovchi dasturlash tili”, “string”, “integer”, “kod”, “Php”, “Java” kabi dasturlashga oid terminlar texnologik leksik maydonga mansub sanaladi. Bu orqali foydalanuvchi innovatsion texnologiyalarga oid shaxsiy qarashlarini bayon etgan.

Sport leksik maydonida esa *olimpiada, medallar, boks, futbol, durrang narija, ring, jarima maydonchasi, marra, darvozabon, g‘oliblik, mag‘lubiyat, suzish, uzunlikka sakrash, reyting, hakam, raqib, jamoa, zaxira, kurashmoq, bellashmoq* kabi leksik birliklar faol qatnashadi.

[@sardorahmedov6710](#): Узбек углонлари, чемпионлар гап йук сизларга. Сизлар бизни гуруримизсизлар. Сизларни доимо Амир Темур каби бобоколонларимиз рухи куллаб кувватлаб юрсин. Хеч қачон енгилиш нималигини билмасдан, фақат галабага эришиб юриш барчаларингизга насиб қилсин [6].

Mazkur jumlada “championlar”, “yengilish”, “g‘alaba” kabi so‘zlar dominantlik qilgani bois ham biz bu sharhni sport leksik maydoniga kirita olamiz.

Ilmiy leksik maydonda ma’lum bir fan yoki sohaga oid terminlar faol qo‘llanadi. Masalan matematikaga oid *Algebra, Geometriya, Trigonometriya, Statistik tahlil, Ehtimollar nazariyasi, Differensial tenglamalar, Matematik mantiq, Topologiya, Kombinatorika, Sonlar nazariyasi, Matematik modellashtirish* kabi atamalar shular jumlasidandir.

[@DilshodSadullayev-z2g](#): assalomu alekum asosiy dioganalga parallel bolgan elementlarni uchburchak qilib kopaytirgandan qaysi elementdan bowlab kopaytirw rol oynamidimi farqi yoqmi [7].

Yuqoridagi sharhda ilmiy terminlar, aniqroq qilib aytganda matematik faniga aloqador *diagnal, parallel bo‘lmoq, element, uchburchak, ko‘paytirish* kabi istilohlar qatori keltirilgan.

Diniy leksik maydonga Alloh, Rahmon, MashaAlloh, Alhamdulillah, Qur’on, hadis, namoz, ro‘za, haj, zakot, duo, masjid, imom, azon, minbar, mehrob, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabi leksik birliklar mansub bo‘lib, foydalanuvchilarning diniy qarashlarini o‘zida ifoda etadi.

[@shoxruxbaxodirov4862](#): Subhanalloh Alhamdulillah Allohu Akbar! MashaAlloh Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlaridan va barcha ahli ilmlardan Alloh rozi bo‘lsin [8].

Keltirilgan sharhda muallif : “Subhanalloh”, “Alhamdulillah”, “Allohu Akbar”, “MashaAlloh”, “Shayx”, “Alloh” kabi diniy leksik birliklarni qo‘llagan va bu elementlar komentariy diniy mavzuda ekanligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy leksik maydonga *marketing, investitsiya, kapital, budjet, foyda, zarar, ayirboshlash, muoamalada bo‘lmoq, pulning aylanishi, inqiroz, taqchillik, byudjet, tavakkalchilik, inflatsiya, investitsiya, eksport, daromad, harajat, import, makro-iqtisodiyot, mikro-iqtisodiyot* kabi iqtisodiy terminlar kiradi.

[@sherbeksunnatullayev6736](#): Shu mavzuni kutgandim admin raxmat ishonamanki bizning xam davlat iqtisodiyoti eng rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi xech bolmaganda 20 talikka va buning uchun eng birinchi navbatda korrupsiyani yuqotishimiz kerak [9].

Xulosa. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishim mumkinki, har bir komentariyda ma'lum bir leksik-semantik guruh elementlarining ustunlik qilishi ularning tematik mansubligini belgilab beradi. Ya'ni siyosiy leksik-semantik guruh (LSG) da o'z nomidan ko'rinib turganidek, siyosiy terminlar, texnologiya guruhida texnologik va shu kabi mavzu nomiga bevosita aloqador terminlar ustuvorlik qiladi. Bir so'z bilan aytganda komentariylarning muayyan turi bir-biriga semantik jihatidan yaqin so'zlar majmuidan tuzilgan bo'ladi. Leksik maydon nazariyasi esa ularni tematik guruhlashning ilmiy asoslarini yaratishda yordamchi mezon vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilova, O. A. (2026). Semantics of scientific, political and popular comments in the virtual communication. *International Journal of Literature and Languages*, 6(2), 128–132.
2. Trier, J. (1931). "Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes". Heidelberg.
3. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Т.: Фан, 2007, 152.
4. <https://youtube.com/watch?v=E0GsGfkT9I8&lc=UgxdCxjs0rHA8gP8WkF4AaABAg&si=tizRS5yd8kZwWr9v>. Murojaat sanasi: 24.02.2026.
5. <https://youtube.com/watch?v=0NdDKClb1eQ&lc=Ugw2eAL0l1Ae3m1QLXJ4AaABAg&si=bQjtgaKrFv-DDnVn>. Murojaat sanasi: 24.02.2026.
6. [https://youtube.com/watch?v=TnnYeSB1f4g&lc=UgxjlvB1zhkZi-ilpjt4AaABAg&si=u0236PkZnYiW0f61](https://youtube.com/watch?v=TnnYeSB1f4g&lc=UgxjlvB1zhkZi- ilpjt4AaABAg&si=u0236PkZnYiW0f61). Murojaat sanasi: 24.02.2026.
7. https://youtube.com/watch?v=r3g0GiPjGHo&lc=Ugx19rVo7KthCGBYNyR4AaABAg&si=FEd_c8kyHYgozDrO. Murojaat sanasi: 24.02.2026.
8. <https://youtube.com/watch?v=yeTiOGP0Rxg&lc=UgzoKKSDChJq03BXcLB4AaABAg&si=-ebnoJfcCKZsCQfM>. Murojaat sanasi: 24.02.2026.
9. https://youtube.com/watch?v=V9oHnfmQXmM&lc=UgydeyzEr_t7bwCVy-x4AaABAg&si=a5blWECD0GEEw70f. Murojaat sanasi: 24.02.2026.